
SHAHAR HOKIMINING BITIRUVCHI YOShLAR BILAN UChRASHUVLARI DAVOM ETMOQDA

Belgilangan reja asosida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov ta'lim muassasalarining bitiruvchilari bilan uchrashmoqda. Samimiy va ochiq muloqotlar mobaynida bitiruvchi yoshlarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari hamda ta'limning keyingi bosqichi bo'yicha bergan savollariga mutaxassislar tomonidan yo'nalishlar berilmoqda.

Shahrimizdagi 3-sonli musiqa va san'at maktabida o'tkazilgan uchrashuv ham bitiruvchilarda katta taassurot qoldirdi. Tadbir davomida shahar hokimi 300 nafarga yaqin bitiruvchilar bilan samimiy suxbatlashdi. Bitiruvchilarga hayotiy tajribalar orqali kasb-hunar egallash, hayotda o'z o'rnilarini topishlari uchun kerakli tavsiyalar berildi.

Tadbir davomida "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turadigan kam ta'minlangan oilalar farzandlariga agar o'qishga kirsam, to'lov kontrakt mablag'ining 50 foizi to'lab berilishi, shuningdek, boshqa yaratilgan sharoitlar bo'yicha ham bitiruvchilariga tegishli tushunchalar berildi.

2022-06-30 11:42:20